

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



STUDY OF THE PROBLEM OF COLOR ASSOCIATION IN LINGUISTICS

Ranakhan Ahmadaliyevna Ubaydullaeva

Lecturer

IDUM 2

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Linguistics, zoomorphism, phraseological units, color-expressing units, association, cognitive, Uzbek language, Z. Jumayeva, F. Kadirova.

Received: 07.01.24

Accepted: 09.01.24

Published: 11.01.24

Abstract: World linguistics has long examined topics like lexical-semantic, stylistic, and the origin of color-expressing units in many languages from comparative, historical, and system-structural perspectives. We have examined the activity of color-representing units in speech in this paper. We have analyzed the fact that these units may be examined from several angles and are frequently found in phraseological units, proverbs, riddles, short sayings, similes, and metaphorical units.

TILSHUNOSLIKDA RANG ASSOTSIASIYASI MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Ra'noxon Ahmadaliyevna Ubaydullayeva

o'qituvchi

2-IDUM

Farg'onan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, zoomorfizm, frazeologik birliklar, rang-tus ifodalovchi birliklar, assotsiatsiya, kognitiv, o'zbek tili, Z.Jumayeva, F.Qodirova.

Annotatsiya: Jahon tilshunosligida uzoq yillar davomida turli tillardagi rang-tus ifodalovchi birliklarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari, derivatsiyasi kabi masalalar qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur aspektlarda o'rganib kelinadi. Mazkur maqolada biz nutqdagi rang-tus ifodalovchi birliklarning faolligi tadqiqini olib bordik. Ushbu birliklarning frazeologik birliklar, maqolilar, topishmoq, tez aytishlar, o'xshatishlar, metaforik birliklar tarkibida ko'p uchrashi ham ularni turli aspektlarda o'rganish mumkinligini tahlil etdik.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ЦВЕТОВЫХ АССОЦИАЦИЙ В ЛИНГВИСТИКЕ

Ранахан Ахмадалиевна Убайдуллаева
преподаватель
ИДУМ 2
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Языкоznание, зооморфизм, фразеологизмы, цветовоыраженные единицы, ассоциации, когнитивные, узбекский язык, З. Джумаева, Ф. Кадирова.

Аннотация: Мировая лингвистика уже давно рассматривает такие вопросы, как лексико-семантические, стилистические и происхождение цветовоыраженных единиц во многих языках, со сравнительной, исторической и системно-структурной точек зрения. В данной статье мы рассмотрели деятельность цветопредставляющих единиц в речи. Мы проанализировали тот факт, что эти единицы могут рассматриваться с нескольких сторон и часто встречаются во фразеологизмах, пословицах, загадках, кратких поговорках, сравнениях и метафорических единицах.

KIRISH

Til tadqiqida rang-tus ifodalovchi birliklarni o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bunga bir necha sababni ko'rsatish mumkin. Inson kundalik hayotida nutqida rang-tus ifodalovchi birliklarni faol ishlataladi. Chunki tashqi olamdag'i har bir predmet rang belgisi bilan ajralib turadi, ularga tavsif berishda rang bo'yog'i ham inobatga olinadi. Bu jarayonda inson tilda mavjud bo'lgan rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklardan unumli foydalanadi. Ushbu holat bu turdag'i birliklarning nutqiy faolligini yanada oshiradi. Rang-tus ifodalovchi birliklarning frazeologik birliklar, maqollar, topishmoq, tez aytishlar, o'xshatishlar, metaforik birliklar tarkibida ko'p uchrashi ham ularni turli aspektlarda o'rganishga turki beradi. Shuningdek, rang-tus ifodalovchi so'zlarning millatning milliy-madaniy, diniy tasavvurlari, mifologik bilimlari kabilar bilan bog'lanishi ham ularni o'rganishga qiziqish ortishiga sabab bo'lgan.

ASOSIY QISM

Dunyo tilshunosligida uzoq yillar davomida turli tillardagi rang-tus ifodalovchi birliklarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari, derivatsiyasi kabi masalalar qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur aspektlarda o'rganib kelindi. Xususan, xorij olimlari V.A.Moskovich, B.Berlin, P.Key, N.B. Baxilina, M.L. Jirmunskaya, T.I.Shxvasabaya, R.V.Alimpiyeva, Y.V.Layenko, I.S.Kuznetsova, G.K. Toyshibayeva, Y.Merzuk, A.A.Kaybiyaynen, X.G.Amichba, L.G. Bedoize, V.G.Kulpina, T.M.Tyapkina asarlarida rus, ingliz, nemis, abxzaz, osetin tillarida rang-tus ma'nosining ifodalanishi, rang-tus ifodalovchi birliklarning leksik-semantik, funksional-struktur,

uslubiy xususiyatlari, derivatsiyasi, qadimgi manbalar matnida qo'llanilishi, frazeologizmlar, turg'un atributiv birikmalar, ko'chimlarni hosil qilishi kabi masalalar tadqiq qilindi.

O'zbek tilshunosligda ham rang-tus bildiruvchi so'zlar sistem-struktur aspektida chuquro'ganildi. Bu muammo dastlab M.Sodiqova, keyinchalik I.S.Matchanova tomonidan monografik aspektida tadqiq etildi. O'zbek tilida rang, rang ottenkasini ifodalovchi birliklar belgilab berildi, bu birliklar leksik-semantik guruhg'a birlashtirildi, ularning leksik-semantik, uslubiy-funksional xususiyatlari, ramziy ma'nolari ochib berildi.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida asosiy ranglarni bildiruvchi so'zlar, rang bildiruvchu bunday so'zlar bilan hosil qilingan farzeologizmlarni antropotsentrik aspektida o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Xusan, M.Xojiddinovaning dissertatsiyasida o'zbek tilidagi rang-tus ma'nosini ifodalovchi so'zlarning konnotativ xususiyatlari yoritildi.

Z.Jumayeva "Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi" deb nomlangan tadqiqot ishida oziq-ovqat, zoomorfizm, kiyim-kechak, raqam komponentli etnofrazemalar qatorida o'zbek tilidagi rang-tus ifodalovchi so'zlar ishtirokida hosil bo'lgan frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berdi. U "*oqko'ngil*", "*oq yuvib, oq taramoq*", "*oqi oq, qizili qizil*" "*oq qilmoq*", "*ichi qora*", "*oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq*" singari rang komponentli frazeologizmlar orqali semantik jihatdan samimiylilik, mehribonlik, go'zallik, xursandchilik kabi ijobjiy hamda norozilik, hasadgo'ylik, dangasalik kabi salbiy konnotatsiyalar ifodalanishini aniqladi. *Qora* leksemasi frazemalar tarkibida predmetning rangini ko'rsatmasligi, balki ko'chma ma'noda ishlatilib, shaxs xarakteridagi munofiqlik, g'alamislik, g'iybatchilik, berahmlik kabi salbiy xislatlarni emotsiyal-ekspressiv va obrazli ifodalashda qo'llanishini asoslab berdi.

Shuningdek, o'zbek tilida rang-tus ifodalovchi birliklar xorij tillari bilan qiyosiy aspektida ham o'rganildi. Masalan, A.M.Bazarbayeva o'zbek, ingliz va rus tillaridagi rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklarni qiyoslab, ularning kognitiv xususiyatlarini ochib berdi. F.Qodirova rus va o'zbek tillaridagi rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklarni o'zaro qiyoslab, lingvokulturologik xususiyatlarini yoritdi.

Boshqa tilshunosliklarda ham rang-tus ifodalovchi birliklar antropotsentrik aspektida o'rganilgan. Masalan, rus tilshunosligida A.V. Mixeyev, R.M.Frumkina, A.P.Vasilyevich, O.A.Bogdanova, T.Y.Svetlichnaya, N.S.Bratchikova, Y.N.Alimova, A.S.Virodova, Y.A.Tanigina tadqiqotlarida rang-tus ifodalovchi birliklarning psixolingvistik, lingvopragmatik, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlari ochib berildi.

O'tgan asrning so'nggi yillaridan boshlab til birliklarini assotsiativ aspektida o'rganishga qiziqish ortishi natijasida keyingi yillarda dunyo tilshunosligida rang-tus ifodalovchi birliklar orqali til sohiblarida hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, Y.Goroshko rus tili sohiblarida rang-tus ifodalovchi so‘zlarga nisbatan hosil bo‘lgan assotsiatsiyalarni aniqlab, ularning lingvistik xususiyatlarini ochib berdi. L.Prokofyeva esa rus tili egalarida yuzaga keladigan tovush-rang assotsiatsiyasining universal va individual jihatlari, milliy xoslanishi masalasini yoritdi. G.Kochetova rus, boshqird va tatar tillarida ranglar bo‘yicha yuzaga keladigan assotsiatsiyalarni til egalari ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribalar asosida aniqlab, ularni qiyosiy tahlil qildi, ranglarning insonga psixologik ta’sirini o‘rgandi. Ushbu tillarda tovush-rang assotsiatsiyasining verbal ifodalanishi, hosil bo‘lishi hamda farqli jihatlarini yoritdi.

N.Yefimenko ham nomzodlik dissertatsiyasida rus tilidagi tovush-rang assotsiativligi muammosini o‘rgandi. Olima rus tilida tovush-rang assotsiatsiyasining verbal modellarini aniqladi, rus tilidagi tovushlarning rang assotsiativligi muammosini til egalari ustida o‘tkazilgan tajribalar hamda o‘quv matnlari misolida ochib berdi.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ham ranglar assotsiatsiyasining tilda voqelanishi masalasini o‘rganishga e’tibor qaratilmoqda. Xusan, D.Lutfullayevanig ayrim maqolalarida rang-tus ifodalovchi ba’zi so‘zlarga nisbatan til egalarida hosil bo‘lgan assotsiatsiyalar tahlilga tortildi. Uning fikricha, “Rang-tus bildiruvchi birliklar bo‘yicha til egalarida hosil bo‘lgan assotsiatsiyalarda insonning ranglar haqidagi tasavvurlari, ranglarga munosabati, ranglar bilan bog‘liq qadriyatlar, urf-odatlar aks etadi. Muayyan rang-tus bildiruvchi birlik hatto inson hayotida sodir bo‘lgan muhim voqeа-hodisani uning xotirasida tiklashi mumkin”, “tilda rang bildiruvchi so‘zlarning ramziy ma’nolari bilan bog‘liq holda ham turli verbal assotsiatsiyalar yuzaga keladi... Ramziy ma’noga ega rang-tus bildiruvchi so‘zlar assotsiativ tarzda o‘zi anglatgan ramzlarni inson xotirasida tiklaydi. Masalan, oq – *tinchlik*, sariq – *kuz*, qizil – *qon* kabi juftliklardagi assotsiatsiyalar rang-tus bildiruvchi so‘zlarning ramziy ma’nolarini yuzaga chiqaradi”.

Tilshunosligimizda bu kabi ayrim ishlarni inobatga olmaganda o‘zbek tilidagi rang-tus ifodalovchi birliklarga nisbatan til sohiblarida hosil bo‘ladigan verbal assotsiatsiyalarni aniqlash, ularning individual va umumiy xususiyatlarini ochib berish, assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga turki beruvchi omillarni aniqlash dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Ayniqsa, o‘zbek tili sohiblarida yuzaga keladigan rang assotsiatsiyasining milliy-madaniy, kognitiv, psixolingvistik jihatlari, assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida kishilarning yosh xususiyatlari, ranglar haqidagi bilimlari, tasavvurlari, milliy-madaniy qarashlarining rolini aniqlash zarur. Ranglar assotsiatsiyasida, ayniqsa, insonning ranglar bo‘yicha bilimlari muhim rol o‘ynaydi. Agar inson biror bir rang haqida to‘liq bilim va tasavvurga ega bo‘lmasa, unda ushbu rang bo‘yicha assotsiatsiyalar yuzaga kelmaydi yoki hosil bo‘lgan assotsiatsiya rangga aloqador bo‘lmaydi. Yoki bu til egasida rang-tus ifodalovchi birlikning faqat tovush tomoni bilan bog‘liq holda biror bir assotsiatsiya yuzaga kelishi mumkin.

XULOSA

Rang assotsiatsiyasining hosil bo‘lishida til sohiblarining ranglarga bo‘lgan munosabati ham muhim o‘rin tutadi. Inson biror bir rangni yoqtirmasa, unda ushbu rangni ifodalovchi so‘zga nisbatan hech qanday assotsiatsiya yuzaga kelmasligi yoki assotsiatsiya salbiy xarakterda bo‘lishi mumkin.

Anglashiladiki, har bir insonning ranglar bo‘yicha o‘z bilim va tasavvurlari, qarashlari mavjud bo‘lib, uning assotsiatsiyalarida bevosita yuzaga chiqadi. Bu holat ranglarga nisbatan turli til egalarida hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalarni o‘rganish, ularning milliy-madaniy jihatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Москович В.А. Семантическое поле цветообозначений (опыт типологического исследования семантического поля). – М., Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М. : Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз. им. М.Тореза. 1965. – 18 с.; Berlin B., Kay P. Basic Colour Terms. Their Universiality and Evolution. – Berkeley; Los Angeles: U. of California Press, 1969. – 178 р.; Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1976. – 43 с.; Жирмунская М.Л. Словообразовательные потенции прилагательных цветообозначений в современных германских языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –М., 1982. – 26 с.; Шхвацабая Т.И. Цветообозначения в языке и речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1985. – 24 с.; Алимпиева Р.В. Семантическая значимость слова и структура лексико-семантической группы (на материале прилагательных-цветообозначений русского языка). – Л.: ЛГУ, 1986 а. – 178 с.; Лаенко Л.В. От семантики цвета к социальной семантике (на материале русских и английских прилагательных, обозначающих цвет): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 1988. – 17 с.; Кузнецова И.С. История переносных употреблений цветообозначений в памятниках русской письменности XVII-XVIII веков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1989. – 16 с.; Тойшибаева Г.К. Цветовая лексика (состав, семантические преобразования, функции) в художественном тексте на материале произведений Ф.М. Достоевского: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1990. – 18 с.; Мерзук Я. Устойчивые сочетания, включающие цветообозначения в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1997. –17 с.; Кайбияйнен А.А. Устойчивые атрибутивно-субстантивные сочетания с прилагательным цвета в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1995. – 19 с.; Амичба Х.Г. Цветовая метафора в абхазском, немецком и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 1997. – 188 с.; Бедоизе Л.Г. Фразеологические единицы с компонентом цвета в немецком, русском и осетинских языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1997. – 250 с.;

Кульпина В.Г. Лингвистика цвета: термины цвета в польском и русском языках. – М.: “Московский лицей”, 2001. – 470 с.; Тяпкина Т.М. Вторично-номинативные функции цветообозначений в современном немецком языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2002. – 286 с.

2. Садыкова М. Слова, обозначающие цвет и окраску, в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 15 с.; Матчанова И.С. Цветообозначения узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 20 с.

3. Xrojiddinova M.M. O‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi so‘zlar konnotatsiyasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. fan. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2109. –53 b.

4. Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – Б.16-19.

5. Базарбаева А.М. Инглиз, ўзбек ва рус тилларида ранг ифодаланишининг когнитив-семантик тузилиши: Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. –57 б.

6. Базарбаева А.М. Инглиз, ўзбек ва рус тилларида ранг ифодаланишининг когнитив-семантик тузилиши: Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 57 б.; Xrojiddinova M.M. O‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi so‘zlar konnotatsiyasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. fan. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. –54 b.; Qodirova F. Rus va o‘zbek tillarida rang-baranglikni aks ettirishning lingvomadaniy xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. fan. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. –53 b.

7. Михеев А.В. Психолингвистическое исследование семантических отношений (на материале слов-цветообозначений): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: Ин-т языкознания, 1983. – 20 с.; Фрумкина Р.М. Цвет, смысл, сходство: аспекты психолингвистического анализа. – М.: Наука, 1984. – 175 с.; Василевич А.П. Исследование лексики в психолингвистическом эксперименте. На материале цветообозначения в языках различных систем. – М.: Наука, 1987. – 140 с; Богданова О.А. Цвето- и светообозначения как одна из форм pragматического фокусирования в структуре художественного текста (на материале прозы Г.Грасса): Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – СПб, 2000. – 19 с.; Светличная Т.Ю. Сравнительные лингвокультурные характеристики цветообозначения и цветовосприятия в английском и русском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2003. – 17 с.; Братчикова Н.С. Цветовая картина мира в финском и русском языковом сознании: Дисс. ... филол. наук. – М., 2006. – 349 с.; Алымова Е.Н. Цвет как лингвокогнитивная категория в русской языковой картине мира: Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 269 с.; Выродова А.С. Лингвокультурологическое пространство

колоративов в русском поэтическом дискурсе первой половины XX века: на материале поэтических текстов С.А. Есенина и Н.М. Рубцова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2008. – 224 с.; Таныгина Е. А. Образ цвета в сознании носителя языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Курск., 2012. – 200 с.

8. Горошко Е.И. Изучение вербальных ассоциаций на цвета // Языковое сознание и образ мира. – М., 2000. – С. 291 -312.

9. Прокофьева Л.П. Звуко-цветовая ассоциативность: универсальное, национальное, индивидуальное. – Саратов: СГМУ, 2007. – 280 с.

10. Кочетова Г.Р. Ассоциативная цветность как проявление внутренней формы вербальной модели: Дисс. ... филол. наук. – Ижевск, 2014. –183 с.

11. Ефименко Н.В. Ассоциативная структура цветового значения слова и текста: Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2011. – 208 с.

12. Лутфуллаева Д. Ранг ассоциацияси ва унинг тилда воқеланиши // Ўзбекистонда ижтимоий тадқиқотлар журнали. – Тошкент. – №3(06). –Б.9.

13. Лутфуллаева Д. Ўзбек тилида ранг ассоциацияси ва унинг ҳосил бўлишига таъсир кўрсатувчи омиллар // Шарқ филологияси. –Тошкент, 2023. –№ 3(06). –Б. 26.